

“O‘zbekko‘mir” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT

“O‘zbekko‘mir” AJning 2021-yil 25-oktabrdagi “O‘zbekko‘mir” AJning korrupsiyaga qarshi kurash tizim Nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 475-sonli buyrug‘i tasdiqlangan bo‘lib, ushbu buyruq asosida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va ISO 37001:2016 ‘Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti” doirasida belgilangan vazifalar amalga oshirildi.

2021-yil 24-dekabr kuni “ISO 37001:2016 standarti asosidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti”ning muvofiqlik sertifikati qo‘lga kiritildi.

Hisobot davrida 13 ta targ‘ibot, 5 ta bayonotlar, 8 ta profilaktik tadbirlar va davra suhbatlari o‘tkazilgan. Muddati o‘tgan yoki bajarilmagan tadbirlar mavjud emas.

Bugungi kunda Jamiat boshqaruv apparati Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limida 2 ta shtat birligida 2 nafar xodim faoliyat olib bormoqda.

Bundan tashqari, Jamiat va uning tarkibiy bo‘linmalariga yil davomida 330 ta bo‘sh o‘rinlarga 62 ta tanlov o‘tkazildi, shundan, 4-chorak davomida 115 ta bo‘sh ish o‘rinlariga 20 ta tanlov o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu tanlovlarda 2563 nafar nomzodlar hujjat topshirdi, ushbu nomzodlarning 1732 nafari malaka talablariga mos kelmaganligi sababli, 716 nafari esa test sinovlaridan o‘ta olmaganligi hamda imtihonlarga kelmaganligi tufayli rad etildi.

1. “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens va korrupsiyaga qarshi xizmat tomonidan yil davomida xodimlar va ishchilar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlikni oshirish, korrupsiyaning har qanday holatlariga qarshi turish maqsadida Jamiat me’yoriy hujjatlar hamda Korrupsiyaga qarshi qonunni yoritib beruvchi 5 ta ko‘rgazmali o‘quv materiallar tayyorlandi.

Jamiyatning tarkibida bo‘lgan jami 11 ta filiallarda mas’ullar tomonidan korrupsiyaviy holatlar, uning huquqiy oqibatlari, o‘zaro sovg‘alar berilishi aks ettirilgan bannerlar mazmun-mohiyati va Korrupsiyaga qarshi Siyosat mazmuni tushuntirib kelinmoqda.

Shuningdek, jamiyatning tarkibiy bo‘limlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat” va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan to‘liq tanishtirilib, alohida tanishtiruv jurnallarini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

“O‘zbekko‘mir” AJ ijtimoiy tarmoqlarida 2023-yil davomida turli mavzularda 15 ta ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha korxona xodimlari faolligini oshirish maqsadida o‘tkazilgan “Korrupsiya holatlariga duch kelasizmi?”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun va qarorlar hamda korxona lokal hujjatlari bilan tanishmisiz?”, “Korrupsiyaviy holatga duch kelsangiz, bu haqida qayerga va kimga murojaat qilishni bilasizmi?”, “Mehnat jamoangizda korrupsiya holati haqida

qanday fikrdasiz?”, Ishchi-xodimlarning mehnat qonunchiligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish yuzasidan o‘tkazilgan “Yillik asosiy mehnat ta’tili necha kun?”, “Ish beruvchini ogohlantirgan holda ishdan bo‘shayotgan xodimga qachon hisob-kitob qilinishi kerak?” degan savollar qo‘yilgan so‘rovnomalari shular jumlasidandir.

2. “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining tarkibidagi barcha filiallarga ochiq tanlov assosida ishga qabul qilinadigan xodimlar to‘liq mehnat shartnomalariga qo‘shimcha kelishuv imzolashlari yo‘lga qo‘yilgan.

3. Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, korrupsiyaga imkon beruvchi barcha shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida, Aksiyadorlik jamiyatni tarkibidagi respublikaning barcha viloyatlarida, xususan, Angren shahrida joylashgan 12 ta tarkibiy bo‘limlari faoliyatini tartibga solib turuvchi barcha hujjatlari o‘rganib chiqildi.

“O‘zbekko‘mir” AJning 2023-yil 14-noyabrdagi №72-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh 2023-yil 16-noyabrdan boshlab “Ko‘mir taminot” MChJning viloyat filiallari kesimida tadbirlar o‘tkazildi.

O‘rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tarkibiy bo‘limlarning faoliyatini tartibga solib turuvchi me’yoriy hujjatlarni talab darajasiga yetkazish, lavozim yo‘riqnomalarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

4. Jamiyatning har bir filiallarida, xususan, “O‘zbekko‘mir” AJning 2023-yil 14-noyabrdagi №72-sonli buyrug‘i bilan tuzilgan ishchi guruhning “Ko‘mirta’milot” MChJga qarashli hududiy filiallarda o‘tkazilgan o‘rganish natijalarida aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha,

4.1. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil etish va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida filial xodimlari orasidan alohida mas’ul xodim (yuriskonsult, kadrlar bo‘limiga) ushbu soha bo‘yicha vazifalar belgilash.

4.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan vazifalarni to‘laqonli ijrosini ta’minlash hamda kunlik nazoratni kuchaytirish, jinoyat sodir etilgan holatlar yuzasidan yuqori turuvchi tashkilot mas’ul xodimlariga vaqtida axborot berish va doimiy profilaktika ishlarini olib borish filial rahbari va kadrlar bo‘limini ichki buyruqlar orqali mas’ul etib tayinlash;

4.3. Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha yanada chuqurroq o‘rganish uchun filial xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda maxsus o‘quv seminarlarni muntazam ravishda tashkil etib borish bo‘yicha takliflar berildi.

5. “O‘zbekko‘mir” AJga ishga qabul qilinayotgan har bir xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar, jumladan, pora olish, pora berish va pora olish va pora berishda vositachilik qilishga javobgarlik mavjudligi to‘g‘risida bandlar qo‘shilgan.

6. Xodimlarga beriladigan ustamalar, ishga qabul qilishdagi ochiq va shaffof tanlov o‘tkazilishi yuzasidan filiallarda tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda 1543 nafar kontragentlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilgan bo‘lib, ushbu xodimlarning barchasi belgilangan tartibda o‘rganish va tekshiruvlardan o‘tkazilgan.

Jumladan, “O‘zbekko‘mir” AJning 2023-yil 14-noyabrdagi №72-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh 2023-yil 16-noyabrdan boshlab “Ko‘mir taminot” MChJning viloyat filiallari kesimida o‘rganishlari davomida Namangan viloyatida Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi – yangi ishga qabul qilinish va rotatsiya jarayonlarida ochiq tanlov asosida amalga oshirish tizimi mavjud emasligi aniqlanib, holat yuzasidan, Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil etish va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida filial xodimlari orasidan alohida mas’ul xodim (yuriskonsult, kadrlar bo‘limiga) ushbu soha bo‘yicha vazifalar belgilash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

7. 2023-yil davomida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish bo‘yicha 1 ta xizmat tekshiruvlari o‘tkazilgan.

8. Korxonada aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlar natijasida 1 nafar xodimiga ta’sir choralar qo‘llanildi.

9. “O‘zbekko‘mir” AJda 2023-yil davomida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 44 ta, xususan, profilaktik tadbirlar, seminarlar, so‘rovnomalari, uchrashuvlar o‘tkazildi. Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi turish, illatning payini qirqish faqat tegishli organlarning emas, barchaning ishi ekanligi yuzasidan targ‘ibot va tadbirlar o‘tkazildi. (1-ilovaga muvofiq).

10. “O‘zbekko‘mir” AJ va uning tarkibiy filiallarida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- “O‘zbekko‘mir” AJning har bir filiallarida ushbu chora-tadbirlarni tadbiq qilish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratib, ular bilan ishlash uchun dastur ishlab chiqish;
- ishga olish jarayonlarida ochiq va shaffof tizimga e’tiborni kuchaytirish;
- xodim (xodim-fuqaro)lar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yliganda hamda korrupsiyaning har qanday holatlari aniqlanganda, keskin choralar qo‘llanishi bo‘yicha kafolat xatlari olish va qat’iy ogohlantirish.

**“O‘zbekko‘mir” AJda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda — 2023 yilda joylashtirilgan materiallar**

Nº	Korxona nomi	Chop qilingan sana	Mavzusi	Chop qilingan nashr, uning internet manzili
1	“O‘zbekko‘mir” AJ	07.04.2023 y.	Korrupsiya - illat, uning oldini olish muhim vazifamizdir	https://youtu.be/AjUlJP2-xMg
2		12.04.2023 y.	"O‘zbekko‘mir" AJ ijro apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi	https://m.youtube.com/watch?v=hrVv mYPwCDI
3	“O‘zbekko‘mir” AJ	10.01.2023 y.	Shaffoflik sari yana bir qadam	https://uzbekcoal.uz/uz/news/shaffofli k-sari-yana-bir-qadam
4	“O‘zbekko‘mir” AJ	09.01.2023 y.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasining aniq vazifalari belgilab olindi.	https://uzbekcoal.uz/uz/news/zbekkmir -az-korppuciyaga-qarsi-kurasis-tuzilmasi-maqsad-va-vazifalari-belgilab-olindi
5	“O‘zbekko‘mir” AJ	27.04.2023 y.	Ishga qabul: korrupsiyaga yo‘l yo‘q	https://uzbekcoal.uz/uz/news/ozbekko mir-aj-ijro-apparatida-qabul-boyicha-ishchi-guruhining-navbatdagi-yigilishi-otkazilmoqda
6	“O‘zbekko‘mir” AJ	04.04.2023 y.	Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligining reyting baholash tizimini joriy etish bo‘yicha chora tadbirlar va "Aksilkorrupsiya haftaligi" doirasida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri	https://www.uzbekcoal.uz/uz/news/ko orupsiyaga-yol-yoq
7	“O‘zbekko‘mir” AJ	31.03.2023 y.	OCHIQLIK INDEKSI-2022	https://uzbekcoal.uz/uz/news/ochiqlik-indeksi-2022
8	“O‘zbekko‘mir” AJ	03.02.2023 y.	Ko‘mir o‘g‘rilari javobgarlikka tortildi	https://uzbekcoal.uz/uz/news/kmir-grilari-zavbgarlikka-tortildi
9	“O‘zbekko‘mir” AJ	11.04.2023 y.	Korrupsiya holatini qanday baholaysiz?	https://uzbekcoal.uz/uz/news/korrupsiya-holatini-qanday-baholaysiz
10	“O‘zbekko‘mir” AJ	13.05.2023 y.	Ochiqlikn ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun ikki kunlik seminar	https://uzbekcoal.uz/uz/news/ochiqlikn-i-taminlashga-masul-bolgan-xodimlar-uchun-ikki-kunlik-seminar
11	“O‘zbekko‘mir” AJ	30.04.2023 y.	Davlat xizmatiga kirishda tenglik konstitutsiyaviy asosda mustahkamlanadi	https://t.me/uzbekcoaluz/10072
12	“O‘zbekko‘mir” AJ	20.04.2023 y.	"Korrupsiyaning oldini olish muhim vazifamizdir"	https://t.me/Nemat_Dushayev/2001
13	“O‘zbekko‘mir” AJ	20.04.2023 y.	I-chorakda murojaatlarning 142 tasi ijobiy hal etildi.	https://t.me/Nemat_Dushayev/2001

14	“O‘zbekko‘mir” AJ	05.04.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJda korrupsiyaga oid faktlarga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha yillik hisobot	https://uzbekcoal.uz/public/files/KQK-bo'yicha%20tushgan%20murojaatlar%20hisoboti.pdf
15	“O‘zbekko‘mir” AJ	05.04.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJ aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy faktlarga doir kelib tushgan xabarlar	https://www.uzbekcoal.uz/userfiles/files/1_2_1_3_(2).pdf
16	“O‘zbekko‘mir” AJ	12.04.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJ korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar 2023-yil 1-choragi bo‘yicha	https://www.uzbekcoal.uz/userfiles/files/1_2_1_3_(3).pdf
17	“O‘zbekko‘mir” AJ	12.04.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJ korrupsiyaga qarshi hamda uning oldini olish bo‘yicha 2023-yil 1-choragi hisoboti	https://www.uzbekcoal.uz/userfiles/files/1_2_4_1_%20%D0%A5%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B1%D0%BE%D1%82%2023-1.pdf
18	“O‘zbekko‘mir” AJ	24.05.2023y.	Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o‘tkazildi.	https://t.me/uzbekcoaluz/10399
19	“O‘zbekko‘mir” AJ	08.05.2023 y.	Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini amaliyotga joriy etish	https://t.me/uzbekcoaluz/10270
20	“O‘zbekko‘mir” AJ	28.04.2023 y.	Korrupsiyaga yo‘l yo‘q	https://t.me/uzbekcoaluz/10216
21	“O‘zbekko‘mir” AJ	14.04.2023 y.	Illatning payini qirqish faqat tegishli organlarning emas, barchaning ishi	https://t.me/uzbekcoaluz/10161
22	“O‘zbekko‘mir” AJ	12.04.2023 y.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish” videolavha (Nurafshon TV)	https://t.me/uzbekcoaluz/10146
23	“O‘zbekko‘mir” AJ	10.04.2023 y.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot tadbiri”	https://t.me/uzbekcoaluz/10137
24	“O‘zbekko‘mir” AJ	07.04.2023 y.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida so‘rovnomalar”	https://t.me/uzbekcoaluz/10134
25	“O‘zbekko‘mir” AJ	07.04.2023 y.	“Korrupsiya illat, uning oldini olish muhim vazifamizdir”	https://t.me/uzbekcoaluz/10129
26	“O‘zbekko‘mir” AJ	07.04.2023 y	“O‘zbekko‘mir” AJ ijro apparatida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzuida seminar-tadbiri	https://t.me/uzbekcoaluz/10116
27	“O‘zbekko‘mir” AJ	06.04.2023 y.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishida so‘rovnomalar	https://t.me/uzbekcoaluz/10110
28	“O‘zbekko‘mir” AJ	05.04.2023 y.	“Korrupsiyaviy harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrar”	https://t.me/uzbekcoaluz/10086
29	“O‘zbekko‘mir” AJ	04.04.2023 y.	“Aksilkorrupsiya haftaligi” doirasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri	https://t.me/uzbekcoaluz/10085
30	“O‘zbekko‘mir” AJ	31.03.2023 y.	Ochiqlik siyosati bo‘yicha infografika	https://t.me/uzbekcoaluz/10067
31	“O‘zbekko‘mir” AJ	14.03.2023 y.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligi reyting baholashdan o‘tkazildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9917

32	“O‘zbekko‘mir” AJ	17.03.2023 y.	«O‘zbekko‘mir» AJ ijro apparatida yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi tanishtirilib, tushuntirishlar berildi.	https://t.me/uzbekcoaluz/9969
33	“O‘zbekko‘mir” AJ	13.03.2023 y.	Mehnat munosabatlariga oid savol-javob	https://t.me/uzbekcoaluz/9903
34	“O‘zbekko‘mir” AJ	02.03.2023 y.	Qabul komissiyada nomzodlar saralab olindi	https://t.me/uzbekcoaluz/9799
35	“O‘zbekko‘mir” AJ	13.02.2023 y.	Kadrlar xizmati faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilish hamda mehnatga oid hujjatlarni rasmiylashtirish” bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlari o‘tkazildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9698
36	“O‘zbekko‘mir” AJ	09.02.2023 y.	"O‘zbekko‘mir" AJ qabul komissiyasi tomonidan mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga navbatdagi sinov imtihonlari o‘tkazildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9673
37	“O‘zbekko‘mir” AJ	06.02.2023 y.	"O‘zbekko‘mir" AJga 2022 yil davomida qancha murojaat kelib tushdi	https://t.me/uzbekcoaluz/9662
38	“O‘zbekko‘mir” AJ	03.02.2023 y.	Ishga kirishda onlayn ariza topshirish videoqo‘llanmasi ishlab chiqildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9635
39	“O‘zbekko‘mir” AJ	02.02.2023 y.	Ko‘mir o‘g‘rilari qo‘lga tushdi va javobgarlikka tortildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9626
40	“O‘zbekko‘mir” AJ	31.01.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJ Axborot xizmati bayonoti	https://t.me/uzbekcoaluz/9617
41	“O‘zbekko‘mir” AJ	30.01.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJga ishga qabul bo‘yicha e’lon	https://t.me/uzbekcoaluz/9611
42	“O‘zbekko‘mir” AJ	27.01.2023 y.	E’lon. Ishga qabul bo‘yicha maxsus telegram-bot ishga tushirildi	https://t.me/uzbekcoaluz/9596
43	“O‘zbekko‘mir” AJ	09.01.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktori “Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi” haqida	https://t.me/uzbekcoaluz/9461
44	“O‘zbekko‘mir” AJ	07.01.2023 y.	“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatni tizim korxonalarini xodimlari va aholiga murojaat	https://t.me/uzbekcoaluz/9450
45	“O‘zbekko‘mir” AJ	01.02.2023 y.	Ko‘mir o‘g‘risiga qanday jazo belgilandi	https://t.me/uzbekcoaluz/9621